“Shashmaqom”ning ashula boʻlimi

Maxammadaliyeva Dilnavoz, Nematjonov Adxam
Respublika musiqa va san’at kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Shashmaqom”ning ashula boʻlimi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: shashmaqom, maqom, navo, sho’ba.

Shashmaqomning ashula boʻlimi – ***“Nasr”*** (zafar, gʻalaba, yordam) deb ataladi.Ashula boʻlimi rang-barang, katta va kichik, sodda va murakkab ashula asarlar turkumidan tashkil topgan. Har bir maqom mazmuni, hajmi, shakli jihatlaridan turlicha boʻlgan ashula namunalaridan iborat. Ular shoʻba (boʻlim, asar), tarona, shoxobcha kabi iboralar bilan yuritiladi. Ashula boʻlimi ikki turkum – ikki guruh shoʻbalardan iborat: ***Birinchi guruh shoʻbasini*** tashkil etgan ***Sarahbor, Talqin, Nasr*** va ***Ufarlar*** “Shashmaqom” ashula boʻlimining asosiy ashula yoʻllaridan hisoblanadi. ***Ikkinchi guruh shoʻbasiga*** – ***Savt, Moʻgʻulchalar*** va turli maqomlarning oʻziga xos boʻlgan ba`zi ashula yoʻllari kiradi. Har bir guruh tuzilishi, shakli va ijro uslublari boʻyicha bir-biridan farq qiladi. Ularning birlamchi vositasi soʻz va kuy mutanosibligidir. Shu jihatdan Nasr boʻlimida Sharq mumtoz shoirlarining she`rlari soʻz matni sifatida qoʻllanadi. Ular oʻzbek va tojik tillari va shevasida talqinetiladi.

Maqom ashula yoʻllarida aytilgan she`rlar – Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Zebuniso, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Munis, Avaz Oʻtar, Muqimiy, Furqat, Yusuf Saryomiy, Xurshid, Habibiy kabi shoirlarning lirik-ishqiy, falsafiy va didaktik mazmundagi Gʻazallari va xalq she`riyatidan tashkil topgan. Ma`lum maqom yoʻliga turlicha mazmundagi she`rlar tushiribaytilgan.

Maqomlarning birinchi guruh shoʻbalariga Saraxbor, Talqin, Nasr, ularning taronalari hamda yakunlovchi Ufar qismlari kiradi. Bulardan tashqari, har bir maqomda unga mansub boʻlgan turkum tarkibiga kirgan ashula yoʻllari ham oʻrin olgan. Jumladan, “Buzruk” maqomida Nasrulloyi, “Rost”da – Navroʻzi sabo, “Navo” va “Dugoh”larda – Husayniy va Oraz, “Segoh”da – Navroʻzi ajam ***Saraxbor*** (sar - bosh, axbor – xabar) – ashula boʻlimining yetakchi shoʻbasi, unda maqomning asosiy musiqiy mavzusi va lad tuzilmasi bayon etilgan. Saraxbor boshqa shoʻbalarga qaraganda eng yirik, murakkab va ijrosi mukammal ashula yoʻli boʻlib hisoblanadi. “Shashmaqom” turkumida oltita Saraxbor mavjud – Buzruk saraxbori, Rost saraxbori, Navo saraxbori, Dugoh saraxbori, Segoh saraxbori va Iroq saraxbori. Saraxborlar kuy rivoji, uning diapazoni kengligi (2-2,5 oktava), yuqori pardalarda avjlarning mavjudligi, xanglarning (ma`lum boʻgʻinni xonish qilish) ijro etilishi, bezaklarning qoʻllanishi jihatidan ham maqom ashula yoʻllarining asoschisi hisoblanadi. Bu taʻsirli, jozibali, beqiyos ashulalarning salmogʻi, qolgan boshqa ashula qismlari (talqin, nasr, ufar)da ham davom etadi. Saraxbor usuli sodda va ravon: oʻlchovi 2Gʻ4 bir taktli vazmin sur`atda ijro etiladi ***Talqin*** (nasihat) – ikkinchi asosiy shoʻba boʻlib, nasihatomuz Gʻazallar bilan aytilgan. “Shashmaqom”ning “Iroq” maqomidan tashqari hamma maqomlarda

mavjud. Talqinlar salmoqli, ulug‘vor va murakkab usuldagi ashula yo‘llaridir. Ular o‘zining kuy harakati, qiyofasi va yo‘nalishidagi xarakteri jihatidan ***Nasr*** (zafar, yordam) va ***Ufarlar*** bilan hamohangdir. Maqomlardagi Talqin, Nasr va Ufar sho‘balari shoxobchalar nomi bilan ataladi (Segoh va Iroqdan tashqari). Uzzol talqini – Uzzol nasri – Uzzol ufari (Buzruk maqomida); Ushshoq talqini – Ushshoq nasri – Ushshoq ufari (Rost maqomida); Bayot talqini – Bayot nasri – Bayot ufari (Navo maqomida); Chorgoh talqini – Chorgoh nasri – Chorgoh ufari (Dugoh maqomida); Segoh talqini – Segoh nasri – Segoh ufari (Segoh maqomida).

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Rajabiy Yu. “O‘zbek xalq musiqasi” V-tom. O‘zbekiston davlat badiy adabiyoti.T.,1959 .
2.Rajabiy Yu. “Shashmaqom tarixi I-VI”.Badiiy adabiyot nashriyoti. T., 1970

WORDLY KNOWLEDGE